

“ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH, O’QUVCHILAR BILIMIDAGI BO‘SHLIQLARNI ANIQLASH”

Abdinabiyeva Muqaddam Anvarovna

Angren shahar Skolioz bilan kasallangan bolalar uchun
mo‘ljallangan 73 – sonli ixtisoslashtirilgan maktab – internat
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annototsiya

Ushbu maqolada o‘quvchining nutqi rivojlantirish, milliy madaniyati yuksaltirish, ularning til malakasini oshirish, xatolar ustida ishlash, o‘quvchining o‘zi ishlashiga sharoit yaratib, o‘z faniga qiziqtira olish ham dolzarb vazifa ekanligi haqida.

Qo‘llanmadan maktab o‘qituvchilar foydalanishlari mumkin.

Kalit so‘zlar: Zamnaviylik, afzallik, ijodiylik va mustaqil ishslash, yangi pedagogic texnologiya

“Aytib ber – men unutaman, ko’rsat - tushumaman, bu narsani o’zim bajarishim uchun sharoit yarat va men o’rganaman”. (Konfutsiy)

Ta’lim sohasida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, ta’lim mazmunini takomillashtirishga oid qabul qilingan hukumat qarorlari, ta’limni hayot bilan

bog‘lash, o‘qitish samaradorligini oshirish tez taraqqiy etib borayotgan jamiyat uchun barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirishni talab qiladi.

Maktabda ona tili va adabiyot fanini o‘qitishning ijtimoiy ahamiyati shundaki, bu fanni chuqur o‘zlashtirgan o‘quvchining nutqi rivojlanib, milliy madaniyati yuksaladi. Qalbida vatanparvarlik hissi jo‘sh uradi. Bu yo‘lda esa o‘quvchilarga faqat ilm o‘rgatish emas, balki ularning til malakasini oshirish ham dolzarb vazifadir.

Ona tili va adabiyot fanini o‘qitishda o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma va malaka bilan birga hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish nazarda tutilgan, DTS va o‘quv dasturlari loyihibarining tajriba-sinovi natijalari yuzasidan amaliyotchilarining fikr-mulohazalarini tinglash, zamnaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, ilg‘or tajribalarni o‘rganish va ommalashtirish masalalari keng muhokama qilinishi lozim.

Fan olimpiadalari natijalarining tahlili, 5–11-sinf “Ona tili” va “Adabiyot” darsliklari bilan ishlashdagi muammolar, darslik mazmuni yuzasidan fikr-mulohazalar umumlashtirilib, tavsiyalar ishlab chiqilishi, kelgusidagi rejalar belgilab olinishi maqsadga muvofiq.

Yangi o‘quv yili uchun qayta nashr qilinib, yildan- yilga ta’limiy va tarbiyaviy mazmuni takomillashtirilib kelinayotgan 5-, 6-, 7-sinf (N.Mahmudov va boshqalar), 8-sinf (M.Qodirov va boshqalar), 9-sinf (N.Mahmudov va boshqalar) “Ona tili” darsliklari haqida fikr yuritishga alohida e’tibor qaratish kerak. Darslik bilan ishlashda o‘qituvchilarning o‘quv dasturi talablarini teran anglashi, dastur materiallari asosida darslarni rejalashtirish, mavzu uchun berilgan amaliy mashq va topshiriqlar bilan ishlashga o‘rgatish orqali o‘quvchilarda mustaqil va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish, dars jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalaridan o‘rinli foydalanish zarurligiga ham ahamiyat berish talab etiladi.

Ona tili ta’limida yozma nutq ustida ishslash og‘zaki nutqqa qaraganda ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Bu nutq turining murakkab tabiatini — imlo qoidalariga amal qilish, tinish belgilarini o‘rinli qo‘llash, fikrning uslub talabiga muvofiq bayon qilinishidir. Yozma nutq o‘quvchidan grammatik va mazmun jihatidan to‘g‘ri jumla tuzishni, har bir so‘zni o‘z o‘rnida — to‘g‘ri qo‘llashni, fikrni ixcham, uslub jihatidan sodda va ravon ifodalashni talab etadi. Bu jihatlar o‘quvchidan yozma savodxonlikni talab qiladi.

5-sinf o‘quv dasturida har bir chorakda o‘quv soatidan kelib chiqib, 6 tadan nazorat ishi belgilangan. O‘quvchilarning imloviy va tinish belgilari bo‘yicha savodxonligi ustidan nazorat, asosan, diktant, bayon va insholar orqali amalga oshiriladi. O‘quvchilarning yozma ishlarini o‘qituvchi tekshiradi, imloviy, uslubiy, tinish belgilari doir va boshqa xil xatolarni tuzatadi, baholaydi. Diktantda uchraydigan xatolarning ba’zilari

ayrim o‘quvchilargagina xos bo‘lib, bu orfografik-grammatik qoidalarni tushunmaslikdan yoki uni unutganidan kelib chiqadi. Ba‘zi xatolar sinfdagi ko‘pchilik o‘quvchilarga xos bo‘ladi. Xatolar ustida ishslashda pedagogik texnologiyalardan foydalanilsa, bunday muammolar tezroq barham topadi. Masalan: o‘qituvchi diktantda yo‘l qo‘yilgan xatolarning turlarini aniqlaydi va uning yoniga qancha o‘quvchi qaysi so‘zlarni xato yozganini ustun shaklida belgilaydi. Hisobga olishning bu turida o‘qituvchi qaysi mavzu bo‘sh o‘zlashtirilgani, qaysi o‘quvchi ko‘p mavzuni bilmaydi yoki unutgan, qaysi o‘quvchining bilimi puxta va asosli ekanini aniqlab oladi. Xatolarni hisobga olishning bu usuli faqat imlo xatolarini emas, tinish belgilariga oid xatolarni tahlil etishda ham qo‘l keladi.

Kuzatishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘qituvchilar diktantda yo‘l qo‘yilgan xatolarni o‘quvchilarning o‘zlariga o‘tilgan qoidalarni eslatish yo‘li bilan tuzattirish, bu borada ularni hamkorlikka chorlash usuliga murojaat etmaydilar. Xatolar ustida ishslash masalasida hamkorlikdagi ta’lim joriy etilganicha yo‘q. Yozma ishlardagi xatolarni tuzatishda pedagogik texnologiyaning metod va usullaridan foydalanish samarali hisoblanadi. Demak, o‘qituvchi har bir diktant tahlilini o‘tkazishda undan oldingi yozma ishda o‘quvchiga qanday topshiriq bergenini ham hisobga olishi lozim. O‘qituvchi diktant tahlili darslariga tayyorlanganda, quyidagilarga amal qilishi maqsadga muvofiq:

o‘quvchining yozma ishini sifatli tekshirish;

yo‘l qo‘yilgan xatolarni guruhlash, tinish va individual xatolar ustida ishslash tizimini tuzib chiqish; uyga beriladigan vazifani puxta o‘ylab, o‘quvchi yo‘l qo‘ygan xatosini bartaraf etishiga yordam berishini ta‘minlash lozim.

Ta‘kidlash joizki, yozma savodxonlikni rivojlantirishda punktuatsiya, ya’ni tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llashga oid bilimlar alohida ahamiyat kasb etadi. Savodli yozish va husnixat malakasi barcha kasb egalari, soha mutaxassislari uchun birdek zarur. Buning uchun o‘zbek tilidagi ishora-imlo qoidalarni mukammal bilish zarur. Bir guruh yetakchi olimlar tomonidan “O‘zbek tili punktuatsiyasining asosiy qoidalari” (T.: 2014, “Ma’naviyat” nashriyoti) kitobi chop etildi. Bundan o‘qituvchilar amaliyotda keng foydalanishlari mumkin.

O‘quv jarayonida ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan yana biri — AKTni keng qo‘llash. Har bir mavzuni AKTdan foydalanib o‘tish uchun, avvalo, elektron darslik, qo‘llanma, dars ishlanma, o‘quv film, ko‘rgazmali materiallar va boshqa anjomlar muhayyo bo‘lishi lozim. Dars jarayonida faqat o‘tilayotgan mavzuga oid materiallardan — elektron dars ishlanmasi, multimediali elektron ishlanmalar (o‘quv filmi) yoki videofilm, didaktik materiallardan foydalanish samaradorlikni ta‘minlaydi. O‘quvchi darsni ma’ruza shaklida eshitishdan ko‘ra, ko‘proq ko‘z bilan ko‘rib, ba‘zi jarayonlarni bevosita kompyuterda bajarsa, o‘zlashtirishi tezlashadi va osonlashadi. Jarayonda muammo usulidan foydalanish lozim. Muammoning yechimini topishda guruhlarga bo‘linib masalani hal etish, muloqot usuli, mantiqiy fikrlash kabi usullar ham dars samaradorligini ta‘minlaydi.

Bu borada “Urg‘u va uning turlari (5-sinf), “Fe’lning munosabat shakllari” (6-sinf), “Modal so‘zlar” (7-sinf), “Sodda va qo‘shma gaplar”, “Ma’lumotnomma matni va ijodiy tavsifiy matn” (8-sinf), “Ko‘chirma gapli qo‘shma gap”, “Ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi” (9-sinf) kabi mavzular yuzasidan Multimedia umumta’lim fanlarini rivojlantirish markazi bilan hamkorlikda videogarslar yaratilib, amaliyotga taqdim etilgan.

Darslarda o‘quvchining faol ishlashi va mavzuni tushunganligini aniqlash, ularni doimo faollikka jalb qilish lozim. Bunda biz yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanib borishimiz kerak.


Darslarda o‘quvchining faol ishlashi va mavzuni tushunganligini aniqlash, ularni doimo faollikka jalb qilish lozim. Bunda biz yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanib borishimiz kerak. Masalan test topshiriqlardan foydalanish ham mumkin, testlardan ta’lim jarayonida (maktabda) foydalanish o‘ziga xos imkoniyatlarni beradi. Testlardan ta’lim jarayonida (maktabda) foydalanish o‘ziga xos imkoniyatlarni beradi:

- tasodiflik yo‘qotiladi;

- o‘quvchi bahosiga yaqin baho ob‘yektiv ko‘rinishda bo‘ladi;
- o‘qitishning turli pag‘onalarida haqli ravishda talab etish mumkin bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarining minimumini aniqlash imkonini beradi;
- o‘quvchini o‘zi qanday kamchilikka yo‘l qo‘yanini aniqlashga va xatolari ustida ishlashga imkon beradi;
- o‘quvchidan so‘rashga, o‘quvchilarning bajargan ishini tekshirishga ketadigan o‘qituvchi vaqtি tejaladi;
- o‘quvchilarning amaliy va nazariy bilimlari sifatini tekshirish imkonini tug‘diradi;

- testlar har jihatdan yaxshi natija beradi, o'quvchi izlanadi, xato va kamchiliklarini bartaraf etadi.

Yana darslarga oid bir qancha usullarni olishimiz mumkin. Masalan, “*Sherigini top*”, “*Blits*”, “*T chizmasi*”, “*Baliq skeleti*” metodi orqali qo’shma gaplarning qanday munosabatda kelishini aniqlash mumkin. Yoki qo’shma gap turlarini aniqlash mumkin.



«Panarama» jadvali va gazeta yoki jumal har tarqatiladi. O'quvchilar o'qituvchi tomonidan tarqatmaga matbuot sahifasidan topgan fe'llami yozib chiqadilar. Kataklar to'lmaguncha tarqatma qog'ozlar partama-partalar almashtriladi. Almashgandan so'ng qolgan topshiriqlarni bajaradilar. Qog'oz oxiri o'z egasiga yetib kelishi kerak. Ular yaxshilab o'qib chiqib umumiyl xulosaga keladilar va taqdimotga chiqadilar. Bu mashg'ulot orqali sinfdagi barcha o'quvchining o'zlashtirganlik darajasini bilib olish mumkin.

Adabiyot darslarida “Venn” diagrammasini to’ldirish, “SWOT” (“KZIX” kuchli jihatlari, zaif tomonlari, imkoniyatlar, xavf - xatar) tahlili metodidan foydalanish kabilar.

Mavjud muammolar va ularning yechimlarini bartaraf etish uchun: Yoshlar o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, milliy namunalarini o‘rganish hamda ularni keng targ‘ib qilish; Ta’lim sifati va samaradorligini oshirish, yangi avlod darsliklarining multimedia majmularini yaratish; Filologiya fanlari ta’lim tizimini yuqori bosqichga ko‘tarishda o‘qitishning innovatsion texnologiyalarini amaliyotga samarali joriy etish lozim.

INTERFAOL METODLAR:

O`qituvchini:

1. *O`z ustida muntazam ishlashga;*
 2. *Doimo ijodiy izlanishga;*
 3. *Yangilik bilan ishlashga;*
 4. *Ilg`or pedagogik usullarni amalyotga joriy etishga turtki beradi.*

O`quvchiga:

1. *Mustaqil izlanishga;*
 2. *Erkin ijodiy yondashuvga;*
 3. *Mavzuni erkin tadqiq qilishga;*
 4. *O`z xohishi bo`yicha dars qilishga;*
 5. *Oiziqishlari bo`yicha tahsil olishlariga turtki beradi.*

Ta'lim sohasini rivojlantirishda, o'quvchilarning savodxonligini oshirishda barchamiz birdek mas'ulmiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yakka va bir necha mualliflar tomonidan yaratilgan manbalar:
 2. N.Mahmudov, A.Madvaliyev “O‘zbek tili punktuatsiyasining asosiy qoidalari” (T.: 2014, “Ma’naviyat” nashriyoti) kitobi.

3. 2. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi». – T.: «O'zbekiston», 1997.
4. Ikromova R. "Grammatika, imlo va nutq o'stirishdan tarqatma materiallar" – T.: «O'qituvchi», 1993-y.
5. Nurmanov V., R. Rasulov. "O'zbek tili jadvallarda" –T.: «O'qituvchi», 1999. 27-30 b.
6. Qosimova K. "Ona tili o'qitish metodikasi" –T.: «Nosir», 2009. 13— 136 b.
7. G'ulomov A. "Ona tili o'qitish printsiplari va metodlari" – T.: «O'qituvchi», 1992 - y.
8. 5 – 9 - sind ona tili darsliklari.
9. Davriy nashrlar va gazetalar:
10. "Til va adabiyot ta'limi" jurnallari.
11. "Ma'rifat" gazetasining turli nashrlari.

Internet materiallari:

1. http: www.referat.uz-Turli fanlardan referatlar to'plamiga boy sahifa. O'quvchilarga juda foydali ma'lumotlar keltirilgan.
2. http: G'G' www.online bi-Informatsion sahifa bo'lib, unda deyarli ixtiyoriy mavzudagi ma'lumotlarni topishingiz mumkin.
3. www.ziyouz.com G'. Abduraxmonov "Ona tili o'qitish metodikasi" .